



BANK RISKLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

SAIDOV ULUG'BEK
ABDIVALIYEVICH

PhD, dotsent v.v.b. "Agrobank" ATB xodimi

Annotatsiya

Maqolada bank risklarini diversifikatsiyalashga ta'sir etuvchi omillar, tijorat banklari risklarni diversifikatsiyalashning makro va mikroiqtisodiy darajadagi asosiy yo'nalishlari, banklarda risklar bilan bog'liq iqtisodiy xavfni pasaytirish va moliyaviy yo'qotishlarni oldini olish, tahlil qilish hamda xorijiy mamlakatlar tajribasini mamlakatimizda qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar tijorat banklari, risklar, makro va mikroiqtisodiy darajada, monetar siyosat, bank kredit, risklarni boshqarish, risklarini diversifikatsiyalash, banklari kredit portfeli.

FACTORS AFFECTING THE DIVERSIFICATION OF BANKING RISKS

SAIDOV ULUG'BEK ABDIVALIEVICH
PhD, dotsent v.v.b. "Agrobank" ATB xodimi

Abstract: The article examines the factors influencing the diversification of bank risks, the main directions of risk diversification in commercial banks at the macroeconomic and microeconomic levels, the analysis of the possibilities of reducing economic risk associated with risks in banks and preventing financial losses, and the application of the experience of foreign countries in our country.

Key words: commercial banks, risks, macro and microeconomic level, monetary policy, bank credit, risk management, risk diversification, bank loan portfolio.

Kirish

Tijorat banklarining bevosita riskga bog'liq bo'lgan asosiy aktiv operatsiyalari sifatida kredit, investitsiya, lizing, ijara va derevativlar bilan bog'liq operatsiyalarini ta'kidlash maqsadga muvofiq. Banklarning majburiyatlari bilan bog'liq risklar mablag'larni jalb qilish va ularni tegishli to'lovlar bilan qaytarish jarayonida vujudga keladi.

Bank risklarini diversifikatsiyalashda asosiy e'tibor, jalb etiladigan mablag'larni riskli aktivlarga joylashtirilgan moliyaviy resurslarni to'liq qaytishi va tegishli foydani shakllantirishga qaratiladi. Bank risklarini diversifikatsiyalashda

ehtimollar nazariyasi va bank risklari nazariyasini biriktirgan holda tadbiq etish mexanizmi asosida vujudga keladi.

Tadqiqotlar va qiyosiy o'rganishlarga tayanib: "Tijorat banklari risklarni diversifikatsiyalash – bu turli darajadagi tashqi va ichki ta'sirlarga qaramasdan bankning samarali rivojlanishini ta'minlab turish maqsadida risklarni markazlashlashuviga yo'l qo'yimaslik va iqtisodiy zararini oldini olishdan iboratdir", deyishimiz mumkin.

Adabiyotlar sharhi

Bank kredit riskiga rossiyalik olimlar "kredit riski – kontragent shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarning bajarmasligi natijasida ko'rishi mumkin bo'lgan yo'qotishdir. Qarz oluvchi tomonidan asosiy summa va to'langan summani chiqarib tashlangandan so'ng qolgan foiz to'lovini to'lolmasligi kreditor uchun yo'qotilgan zarar sifatida baholanadi"¹, degan tarzda, riskni faqat kredit jarayoni bilan bog'lab qo'ygan.

G'arbiy Yevropalik iqtisodchilar Ye.V. Ioda, L.L. Meshkova, Ye.N. Bolotinalar tomonidan bank risklariga ta'rif be'rishda ikki tomonlama yondashilgan. Absolyut ma'noda "risk - o'lchanilishi mumkin moddiy narsalar (jismoniy) va qiymat (pul mablag'lari) ko'rinishidagi yo'qotishlar miqdorini aniqlaydi" deya qaralsa, nisbiy ma'noda "risk - tijorat bankining moliyaviy holatiga, faoliyatdagi resurslarining umumiy xarajatlariga yoki kutiladigan daromadiga (foydasiga) ta'sir qilishi mumkin bo'lgan yo'qotishlari miqdori"², deya ta'kidlangan.

Professor Sh.Abdullaeva "bank riski – bu bank faoliyatini amalga oshirish jarayonida bank mablag'larining bir qismini yo'qotish, yoki daromad ololmaslik sharoitida ijobiy natijaga umid qilib, bank operatsiyalarini (depozit, kredit, investitsiya, valyuta) o'tkazishdir"³, deb ta'rif keltirgan.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston tijorat banklari risklarni tasniflashda asosiy e'tiborni davlat ulushi mavjud tijorat banklarga qaratish maqsadga muvofiq. Chunki, keyingi yillarda davlat tijorat banklarida aktivlar diversifikatsiyasi va sifati, muammoli aktiv (kredit)lar ulushining yuqoriligi, aktivlar va kapital qaytimi kabi qator dolzarb masalalarning asosiy qismi davlat ulushi tijorat banklarida markazlashgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekistone hukumati tijorat banklari kapitali tarkibida davlat ulushini xorijiy va mahalliy hamda aholiga sotish bo'yicha sa'yi harakatlarni amalga oshirmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "2020 — 2025 yillarga mo'ljallangan o'zbekiston respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi PF-5992-sonli Faromniga asosan davlat ulushi bo'lgan tijorat banklarini bosqichma-bosqich transformatsiya qilish vazifalari belgilab qo'yilgan. Jumladan:

¹ Лобанова А.А., Чугунов А.В. Энциклопедия финансового риск-менеджмента. –М.: "Юрайт", 2006. –С.363.

² Классификация банковских рисков и их оптимизация / Под общ. ред. проф. Е. В. Иода. 2-е изд., испр., перераб. Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2002. 120 с.

³ Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари ва кредитлаш. - Т.: Молия, 2002. - 304 б.

bank tizimi aktivlarining umumiy hajmida davlat ulushi bo'lmagan banklar aktivlari ulushini joriy 15 foizdan 2025 yilga kelib 60 foizgacha oshirish;

banklar majburiyatlarining umumiy hajmida banklarning xususiy sektor oldidagi majburiyatlari ulushini joriy 28 foizdan 2025 yil yakuniga 70 foizgacha oshirish vazifalari shular jumlasidan bo'lib, bu borada keyingi yillarda qator ishlar amalga oshirildi. Shunga qaramasdan, davlat ulushi mavjud tijorat banklari aktivlari, kreditlari, depozitlari va kapitali tarkibida sezilarli darajada yuqoriligicha qolmoqda. Buni quyidagi jadval ma'lumotlari asosida atroflicha ko'rib chiqamiz.

1-jadval

**O'zbekiston bank tizimi asosiy
ko'rsatkichlari va dinamikasi⁴**

(jamiga nisbatan foizda)

Ko'rsatkichlar	01.01. 2020 y.	01.01. 2021 y.	01.01. 2022 y.	01.01. 2023 y.	01.01. 2024 y.
Jami aktivlar, shundan:	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
<i>davlatga tegishli</i>	<i>84,4</i>	<i>84,9</i>	<i>81,5</i>	<i>78,2</i>	<i>67,7</i>
<i>boshqa banklar</i>	<i>15,6</i>	<i>15,1</i>	<i>18,5</i>	<i>21,8</i>	<i>32,3</i>
Jami kreditlar, shundan:	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
<i>davlatga tegishli</i>	<i>88,2</i>	<i>88,3</i>	<i>85,8</i>	<i>83,2</i>	<i>70,7</i>
<i>boshqa banklar</i>	<i>11,8</i>	<i>11,7</i>	<i>14,2</i>	<i>16,8</i>	<i>29,3</i>
Jami depozitlar, shundan:	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
<i>davlatga tegishli</i>	<i>72,2</i>	<i>71,9</i>	<i>66,7</i>	<i>62,5</i>	<i>51,5</i>
<i>boshqa banklar</i>	<i>27,8</i>	<i>28,1</i>	<i>33,3</i>	<i>37,5</i>	<i>48,5</i>
Jami kapital, shundan:	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
<i>davlatga tegishli</i>	<i>86,7</i>	<i>84,0</i>	<i>81,4</i>	<i>77,8</i>	<i>65,1</i>
<i>boshqa banklar</i>	<i>13,3</i>	<i>16,0</i>	<i>18,6</i>	<i>22,2</i>	<i>34,9</i>

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston tijorat banklari aktivlari, kreditlari, depozitlari va kapitali tarkibida tahlil etilayotgan 2020 yildan 2024 yil 1 yanvar holatiga davlat ulushi pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan bo'lsada, ularning asosiy qismi davlat hissasiga to'g'ri kelmoqda, dissertatsiya ishining 2-ilovasida O'zbekiston bank tizimi aktivlari, kreditlari, depozitlari va kapitalining hajmi va dinamikasi bo'yicha tegishli ma'lumotlar keltirilgan.

Ma'lumotlarga tayanib aytadigan bo'lsak, tijorat banklari aktivlari 2020 yil 1 yanvar holatiga 84,4 foizi davlatga tegishli bo'lgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2024 yil 1 yanvar holatiga 70,7 foizga yoki tahlil etilayotgan davrda 16,7 punktga kamaygan.

⁴ O'zbekiston Markaziy banki veb sahifasiga jylashtirilgan Statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi
<https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/1542069/>

Xuddi shu davrda, davlatga tegishli bo'lgan kreditlar ulushi 7,5 punktga kamaygan, bank tizimi depozitlari tarkibida davlatning ulushi 20,7 punktga kamaygan yoki bank tizimi depozitlari tarkibida xususiy sektor va jismoniy shaxslarga tegishli bo'yigan depozitlar ulushini 2024 yil 1 yanvar holatiga 48,5 foizga yetganligini ko'rishimiz mumkin. Mamlakat bank tizimi kapitali tarkibida davlat ulushi 2020 yil 1 yanvar holatiga 86,7 foizni tashkil etgan bo'lsa 2024 yil 1 yanvar holatiga 65,1 foizga yoki 21,6 punktga pasayganligini ko'rishimiz mumkin.

Demak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida qayd etgan farmoniga ko'ra mamlakatimiz bank tizimida davlat ulushi bo'lmagan aktivlarni 2025 yilga kelib 60 foizga yetkazish, banklarning xususiy sektor oldidagi majburiyatlari ulushini joriy 28 foizdan 2025 yil yakuniga 70 foizgacha oshirish bo'yicha qator ishlarni qilishimiz zurrurdir.

Bizning nazarimizda, tijorat banklari kreditlari, kapitali yoki kapitali davlatga yoki xususiy tijorat banklariga tegishli bo'lishidan qa'tiy nazar, asosiy masala ularning aktivlari sifati yuqori darajada bo'lishi va muammoli aktivlar ulushi xalqaro qabul qilingan me'yorlardan oshib ketmaligi zurrur. Chunki, Tijorat banklari aktivlari tarkibida muammoli aktivlar ulushi yuqoriligi banklarning daromadlarini kamayishiga va xarajatlarini ko'payishiga olib keladi. Shu sababdan ham dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlari bank amaliyotida, xususan, G'arbiy Yevropa davlatlarining bank kreditlash amaliyotida muddati o'tgan kreditlarning jami kredit qo'yilmalar hajmidagi salmog'ini 3 foizdan oshmasligi normal holat hisoblanadi. Bu ko'rsatkichning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan chegaraviy miqdori 5 foizni tashkil qiladi. Banklarda beriladigan har bir kredit boshqalariga o'xshamagan alohida xususiyatlarga egadir. Shuning uchun ham muammoli kreditlarni kaytarilishini ta'minlash borasida yagona qonun va qoidalar ishlab chiqilmagan⁵.

O'rganishlar va tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, keyingi yillarda tijorat banklari muammoli aktivlari hajmiga nafaqat milliy iqtisodiyotdagi holatlar, balki xalqaro darajada geosiyosiy va geoiqtisodiy jarayonlarning keskinlashuvi ham salbiy t'sir ko'rsatmoqda. Chunki, tijorat banklarining moliyaviy mustahkamligi hamda foyda darajasining past yoki yuqoriligi bevosita va bilvosita mahalliy va xorijiy investorlar hamda mijozlarning moliyaviy barqarorligi va samaradorligiga bog'liqdir.

Quyidagi jadvalda mamlakatimiz tijorat banklari aktivlari tarkibida muammolari kreditlarning hajmi va dinamikasi keltirilgan.

2-jadval

Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL)⁶

(jamiga nisbatan foizda)

Ko'rsatkichlar	01.01.	01.01.	01.01.	01.01.	01.01.
----------------	--------	--------	--------	--------	--------

⁵ Maqsudov B.A. Tijorat banklari muammolari aktivlarini qisqartirish yo'llari. i.f. (PhD) bo'yicha fal. dok. il. dar. olish uchun baj. diss. avt. –T.: 2023, TMI, 62 b.

⁶ O'zbekiston Markaziy banki veb sahifasiga jylashtirilgan Statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/1542069/>

	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Jami kreditlar, shundan:	100	100	100	100	100
<i>davlat ulushi mavjud banklar;</i>	88	88	86	83	71
<i>boshqa banklar.</i>	12	12	14	17	29
Muammoli kreditlar, shundan:	100	100	100	100	100
<i>davlat ulushi mavjud banklar;</i>	88	89	87	90	80
<i>boshqa banklar.</i>	12	11	13	10	20
Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi, %da:	1,5	2,1	5,2	3,6	3,5
<i>davlat ulushi mavjud banklar;</i>	1,5	2,1	5,4	3,9	4,0
<i>boshqa banklar.</i>	1,4	1,9	4,1	2,1	2,4

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tahlil etilayotgan davrda tijorat banklarida jami kreditlari tarkibida davlat ulushi hajmi kamayib borayotgan bo'lsada, ularda muammoli kreditlar ulushi yuqoriligicha qolmoqda, dissertatsiya ishining 3-ilovasida O'zbekiston bank tizimida muammoli kreditlar hajmi va dinamikasi bo'yicha tegishli ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbekiston tijorat banklari jami kreditlari tarkibida davlat ulushini 2024 yil 1 yanvarda 2020 yil 1 yanvar holatiga nisbatan 17 foizga yoki boshqa tijorat banklari kreditlari aynan shu punktga oshganligini kuzatish mumkin. Buni, albatta, ijobiy holat sifatida baholash mumkin, chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy banklar, ya'ni davlat mulkiga asoslanmagan tijorat banklari ulushning ortib borishi ularning xizmatlari turlarini oshishga va sifatini mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, tijorat banklari kreditlari tarkibida davlat ulushi kamayib borayotganligiga qaramasdan, muammoli kreditlar turaibida davlat tijorat banklari ulushi sezilarli darajada yuqori darajani tashkil etayotganligi jadval ma'lumotidan ko'rinib turibdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi 2023 yil 28 yanvardagi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.

2. Izbosarov B.B. Globallashuv sharoitida tijorat banklarining likvidligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish. iqt. fanlari doktori (DSc) diss. avtoreferati. –T.: 2023, - 91 b.

3. Maqsudov B.A. Tijorat banklari muammolari aktivlarini qisqartirish yo'llari. i.f. (PhD) bo'yicha fal. dok. il. dar. olish uchun baj. diss. avt. –T.: 2023, TMI, 62 b.

4. Nazarova Ch.B. "Tijorat banklarining chakana kreditlash amaliyotini takomillashtirish" mavzusidagi iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati T.: – 2023. 25 b.

5. <https://www.worldbank.org/> - jahon bankining rasmiy veb - sayt ma'lumotlari.

<http://www.cbu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti ma'lumotlari.